Avvalo, namuna standart hajmda olinadi. Bu uning barcha qismlari bir xil sharoitda tekshirilishini ta’minlaydi. Maxsus elektr qarshiligi yoki dielektrik xususiyatlarini o‘lchaydigan asboblar yordamida namuna o‘lchanadi. Bu asboblar namunaga kichik elektr toki yuboradi va uning qarshiligini o‘lchaydi. Olingan ma’lumotlar maxsus dasturiy ta’milot yordamida tahlil qilinadi. Bu dasturiy ta’milot materialning namlik darajasini hisoblash uchun mo‘ljallangan bo’ladi. Ushbu usul juda tez natijalar beradi, ba’zan bir necha soniyalar ichida. Yuqori aniqlikdagi asboblar yordamida o‘lchanadi, bu esa xatoliklarni kamaytiradi. Turli xil materiallar bilan ishslash imkoniyatini beradi.

Ushbu texnologiya qimmatbaho uskunalarni talab qilishi mumkin. Asbob-uskunani boshqarish va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus bilim va ko‘nikmalar talab etiladi.

Ushbu usul oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo‘jaligidagi va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Materiallarning namligini tez va aniq o‘lhashi tufayli, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sifat nazoratini yaxshilash va saqlash muddatini uzaytirish imkonini beradi. Shunday qilib, elektr qarshiligi yoki dielektrik xususiyatlarini o‘lhash usuli, zamonaviy texnologiya yordamida un kabi mahsulotlarning namligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu usulning qo‘llanilishi samaradorlik va aniqlikni oshiradi. Elektr qarshiligi yoki dielektrik xususiyatlarini o‘lhash usuli, unning namligini aniqlashda foydalilaniladigan zamonaviy va samarali usullardan biridir. Ushbu usul namlik miqdorining elektr xususiyatlariga ta’sirini o‘rganishga asoslanadi. Quyida ushbu usulni tushuntirish uchun qo‘llaniladigan asosiy formulalar va ularning qo‘llanilishi haqida tushuncha beriladi.

Elektr qarshiligi orqali namlikni o‘lhash Om qonuniga asoslanadi:

$$R = \frac{U}{I} \quad (2)$$

bu yerda  $R$ -qarshilik,  $U$ -kuchlanish,  $I$ -tok. Namlik oshgan sari elektr qarshiligi kamayadi, chunki suv elektr o'tkazuvchanligi yuqori bo'ladi.

Namlik miqdorini aniqlash uchun qarshilik qiymatlarini kalibrlash egri chizig'i yordamida namlik darajasiga aylantiramiz:  $M = a \cdot R + b$

bu yerda  $M$  - namlik miqdori,  $R$  - o'lchangan qarshilik,  $a$  va  $b$ -kalibrash koeffitsiyentlari.

*Masalan:* Faraz qilaylik, bug'doy unining qarshiligi  $R$  o'lchandi va kalibrash koeffitsiyentlari  $a = -0.5$  va  $b = 20$  bo'lsin.


1.Qarshilikni o'lhash:  $R = 30\Omega$

Namlik miqdorini hisoblash:

$$M = -0.5 \cdot 30 + 20 M = -15 + 20 M = 5\%$$

Bu usulda bug'doy unining namligi 5% ekanligini aniqladik.

(3)



### Dielektrik singdiruvchanlik orqali namlikni o'lhash

Dielektrik singdiruvchanlikni o'lhash kondensator sig'imini o'zgarishiga asoslanadi.

dielektrik singdiruvchanligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\epsilon_r = \frac{C}{C_0} \quad (4)$$

bu yerda  $\epsilon_r$ -dielektrik konstantasi,  $C$ -dielektrik material bilan kondensatorning sig'imi,  $C_0$ - vakuumdagi sig'imi.

Namlik oshgan sari dielektrik singdiruvchanlik oshadi. Namlik miqdorini aniqlash uchun dielektrik konstantasi qiymatlarini kalibrash egri chizig'i yordamida namlik darajasiga aylantiramiz:  $M = k \cdot \epsilon_r + d$  bu yerda  $M$ -namlik miqdori,  $\epsilon_r$ -o'lchangan dielektrik konstantasi,  $k$  va  $d$ -kalibrash koeffitsiyentlari.

Masalan: Faraz qilaylik, bug'doy unining dielektrik singdiruvchanligi  $\epsilon_r = 3$  va kalibrash koeffitsiyentlari  $k = 2$  va  $d = 0$  bo'lsin.

Dielektrik konstantani o'lhash:  $\epsilon_r = 3$

Namlik miqdorini hisoblash:  $M = 2 \cdot 3 + 0M = 6\%$

Bu usulda bug'doy unining namligini 6% ekanligini aniqladik.

Bug'doy unining namligini elektr qarshiligi yoki dielektrik singdiruvchanlik orqali qanday o'lhash mumkinligini ko'rsatadi. Har ikkala usul ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lib, maqsadga muvofiq foydalanish mumkin.

### 3. Near Infrared Reflectance (NIR)

Yaqin infraqizil reflektans (NIR) spektroskopiya usuli bo'lib, moddalarning yaqin infraqizil diapazonida (800 nm-2500 nm) elektromagnit to'lqinlarni qaytarishini o'lhashga asoslangan. Bu usul, ayniqsa, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va boshqa sanoat sohalarida keng qo'llaniladi.

NIR spektroskopiya molekulyar vibratsiyalarga asoslangan bo'lib, yaqin infraqizil diapazonda yorug'likning molekulalar tomonidan yutilishi va qaytarilishi o'rganiladi. NIR diapazonidagi yorug'lik molekulalardagi bog'lanishlarni (masalan, C-H, O-H, N-H) vibratsiyaga keltiradi.

Bu usul namunaga yaqin infraqizil nur yuborish orqali uning namligini aniqlaydi. NIR texnologiyasi juda tez natijalar beradi va xavfsiz emas, shuning uchun ko'p sohalarda afzal qilingan usul hisoblanadi.

Ushbu usul laboratoriya sharoitida va sanoatda keng qo'llaniladi, chunki u tezkor va aniq natijalar beradi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Near Infrared Reflectance (NIR) usuli yorug'likning ma'lum bir diapazonidagi aks ettirishni o'lhashga asoslanadi va bu usul oziq-ovqat sanoati, jumladan unning namligini tezkor aniqlashda keng qo'llaniladi. NIR usuli materiallardagi kimyoviy tarkibni, xususan suv miqdorini aniq va tez aniqlash imkonini beradi.

NIR spektroskopiyasi, material yuzasiga yaqin infraqizil nur yuborilganda uning qancha yutinishi va aks etishini o'lchaydi. Suv molekulalari NIR yorug'lik diapazonida ma'lum bir to'lqin uzunligida yorug'likni yutadi, shuning uchun bu o'zgarishlar materialdagi suv miqdorini aniq ko'rsatadi.

Namuna tayyorlanadi va NIR spektrometri asbobiga joylashtiriladi. Asbob namunadan o'tadigan yorug'likni o'lchaydi, va bu yorug'lik namunadagi molekulalar tomonidan qisman yutiladi. Yutilgan yorug'lik miqdori va aks ettirilgan yorug'lik spektri tahlil qilinadi, bu orqali materialdagи suv miqdori aniqlanadi. NIR usuli yordadamida namlikni aniqlash NIR usuli yordamida un namligini aniqlash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$\text{Namlik \%} = a + b \times \text{NIR Intensity} \quad (5)$$

Bu yerda:  $a$  va  $b$  - kalibratsiya jarayonida aniqlangan ko'rsatkichlar,

NIR Intensity-NIR Intensity-NIR spektroskopyiyasi orqali olingen yorug'likning aks ettirish darajasi.


Masalan. Agar NIR spektrometri yordamida un namunasining aks ettirish intensivligi 0.65 deb o'lchangan bo'lsa va kalibratsiya jarayonida aniqlangan ko'rsatkichlar  $a = 5\%$ ,  $a = 5\%$  va  $b = 10b = 10$  bo'lsa, unning namlik darajasini hisoblash mumkin:

$$\text{Namlik \%} = 5\% + 10 \times 0.65 = 11.5\%$$

Bu misol un namunasining namlik darajasi 11.5% ekanı ko'rsatadi.

#### 4. Karl Fischer Titration

Karl Fischer titrlash usuli yod ( $I_2$ ) va oltingugurt dioksid ( $SO_2$ ) bilan suvning redoks reaksiyasiga asoslanadi. Asosiy kimyoviy reaktsiya quyidagicha:



Bu yerda RN - organik asos (masalan, piridin).

Karl Fischer titrlash usuli ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin: volumetrik va kulonometrik.

#### Volumetrik Karl Fischer Titratsiyasi

- Namuna va Karl Fischer reagenti (yod, oltingugurt dioksid, va metanol) eritmada aralashtiriladi.
- Reaksiya paytida yod suv bilan reaksiyaga kirishadi va suv tugagunga qadar bu jarayon davom etadi.
- Yodning ortiqcha miqdorini aniqlash uchun eritmaga qo'shiladigan yod miqdori o'lchanadi.
- Suv miqdori titrlangan yod miqdori bilan hisoblanadi.

#### Kulonometrik Karl Fischer Titratsiyasi

- Namuna Karl Fischer hujayrasi ichida eritiladi.
- Yod elektr toki yordamida in-situ hosil qilinadi.
- Suv miqdori elektr zaryad miqdori orqali aniqlanadi.
- Bu usulda yuqori aniqlikda o'lhash mumkin.

Bu kimyoviy usul suv molekulalarini aniq o'lhash uchun ishlataladi. Karl Fischer titrations usuli juda aniq va ishonchli natijalar beradi. Karl Fischer Titration (KFT) usuli suv miqdorini aniq o'lhash uchun ishlataladigan kimyoviy analiz usulidir. Bu usul juda past darajadagi suv miqdorini (hatto ppm darajasida) aniq aniqlay oladi va shu sababli oziq-ovqat, farmatsevtika va kimyo sanoatida keng qo'llaniladi.

KFT(Karl fischer titration) usuli, suvning Karl Fischer reagenti bilan kimyoviy reaksiyasiga asoslangan. Bu reagent iodin, sulfir dioksid, metanol va boshqa moddalarni o'z ichiga oladi. Suv reagent bilan reaksiyaga kirishganda, iodin sarflanadi, va bu sarflanish darajasi suvning miqdorini aniq belgilash imkonini beradi.

*Ushbu usulda quyidagi ketma-ketlik amalga oshiriladi.*

Namuna Tayyorlash: Avvalambor, namuna Karl Fischer titratoriga joylashtiriladi.



Titration: Karl Fischer reagenti asta-sekin namunaga qo'shiladi. Suv molekulalari bilan reaksiyaga kirishgan sayin, reagent rangi o'zgaradi. End Point Aniqlash: Titrator, reagentning rangi o'zgarishini kuzatib, suv molekulalari bilan to'liq reaksiyaga kirishgan nuqtani (end point) aniqlaydi. Bu nuqta, reagentning qo'shilishi to'xtatiladigan vaqtdir.

Karl Fischer Titrationda quyidagi formula ishlataladi:

$$Namlik \% = \frac{\text{Titrant hajmi} \times \text{Titrantning konsentratsiyasi} \times \text{Mol massasi suv}}{\text{Namuna massasi}} \times 100\% \quad (6)$$

### Misol:

Agar 0.5 g un namunasini o'lchashda 2 mL titrant ishlataligan bo'lsa, va har bir mL titrant 5 mg suvni reaksiyaga kirishish uchun sarflagan bo'lsa, suvning massasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Suv massasi} = 2 \text{ mL} \times 5 \text{ mg / mL} = 10 \text{ mg} \quad (7)$$

Endi, namlik foizini hisoblaymiz:

$$Namlik \% = \left( \frac{10_{\text{mg}}}{500_{\text{mg}}} \right) \times 100\% = 2\%$$

Bu misolda, un namunasining namlik darajasi 2% ekani aniqlandi.

Juda past namlik miqdorlarini ham aniqlay oladi. Bir necha daqiqada namlik miqdorini aniqlay oladi. Turli xil materiallar uchun mos keladi.

Asbob-uskunalar va reagentlar qimmat. Titratorni ishlatalish va natijalarni tahlil qilish uchun maxsus bilim va tajriba talab etiladi.

Karl Fischer Titration usuli, uning yuqori aniqligi tufayli, namlikning past darajalari kritik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda.

### 4.Yadro magnit rezonans (YMR ) usuli bilan namlikni aniqlash

Yadro magnit rezonans usuli atom yadrolarining magnit maydonda rezonans chastotasi bilan radiochastota (RF) impulslariga javob berish qobiliyatiga asoslanadi. yadro magnit rezonans signalini hosil qiluvchi asosiy yadro-proton (<sup>1</sup>H) hisoblanadi, chunki u ko'p molekulalarda, jumladan suvda ham mavjud.

Yadro magnit rezonans signali uch bosqichni o'z ichiga oladi:

*Polarizatsiya:* Kuchli magnit maydon protonlarni parallel va antiparallel yo'nalishda tartibga soladi.

*Qo'zg'alish:* RF impuls protonlarni qo'zg'atib, energiya darajasini o'zgartiradi.

*Relaksatsiya:* Protonlar dastlabki holatiga qaytib, elektromagnit signal chiqaradi.

Larmor Chastotasi(Larmor chastotasi yadro magnit rezonans (YMR) usulida muhim tushunchalardan biri bo'lib, yadrolarning magnit maydon ostida aylanma

harakatining burchak chastotasini ifodalaydi. Bu chastota yadrolarning magnit maydonda qanday tezlikda aylanishini aniqlaydi.

Larmor chastotasi, yadro magnit maydonda aylanganda, yadroning magnit momenti va statik magnit maydon o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida hosil bo‘ladi. Bu chastota quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\omega_0 = \gamma B_0 \quad (8)$$

bu yerda:

$\omega_0$  – Larmor chastotasi (rad / s)

$\gamma$  – yadro giromagnit nisbati (rad / T·s),

$B_0$  – statik magnit maydon kuchi (T)..

Giromagnit nisbati ( $\gamma$ )-bu yadroning magnit momenti va burchak momenti o‘rtasidagi nisbati bo‘lib, har bir yadro uchun o‘ziga xosdir. Masalan, proton ( $^1\text{H}$ ) uchun  $\gamma$  qiymati 42.58 MHz/T.

Larmor chastotasi yadro magnit rezonans tajribalarida quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir: Yadrolar RF impuls bilan qo‘zg‘atilganda, bu impuls Larmor chastotasiga mos kelishi kerak. Aks holda, yadrolar qo‘zg‘almasligi mumkin. Yadro magnit rezonans spektrlarida Larmor chastotasi yordamida yadrolarning kimyoviy muhitini aniqlash mumkin.

Yadro magnit rezonans signal amplitudasi ( $M_0$ ) protonlar soniga bog‘liq:

$$M_0 = \frac{T N \gamma^2 \hbar^2 B_0}{4 k_B T} \quad (9)$$

$N$  - protonlar soni,

$\hbar$  - Plank doimiysi,

$k_B$  - Boltzmann doimiysi,

$T$  - absolyut harorat.

Relaksatsiya vaqtleri:

Yadro magnit rezonans signalining asosiy tahlillari relaksatsiya vaqtlariga asoslanadi:

T1 (Spin-reja relaksatsiya vaqt): Energiya protonlar magnit maydon bilan o‘zaro ta’sirida tarqaladi.

T2 (Spin-spin relaksatsiya vaqt): Energiya protonlar o‘zaro ta’sirida tarqaladi.

### **Yadro magnit rezonans sulida bug‘doy unidagi namlikni aniqlash**

Yadro magnit rezonans usulida bug‘doy unidagi namlikniya’ni suv molekulalari protonlar sonini aniqlab o‘lchashga asoslanadi. Suv molekulalarining mavjudligi va joylashuvi yadro magnit rezonans signallarining amplitudasi va relaksatsiya vaqtlariga ta’sir qiladi.

Statik magnit maydon  $0 = 1.5 T$   $B_0 = 1.5 T$  (tesla) bo‘lsa,

Suv uchun giromagnit nisbati  $\gamma = 42.58 \text{ MHz} / T$ .

Larmor chastotasi:  $\omega_0 = \gamma B_0 = 42.58 \times 1.5 = 63.87 \text{ MHz}$

Bug'doy unida suv molekulalari soni  $N = 1023 bo'lsa$ ,

Harorat  $T = 298 K$  (kelvin).

$$\text{Signal amplitudasi: } M_0 = \frac{T N \gamma^2 \hbar^2 B_0}{4 k_B T} \quad (10)$$

bu formulani hisoblash uchun barcha doimiylarni qo'llash kerak.

Bug'doy unidan namunani olib, yadro magnit rezonans asbobiga joylashtiriladi.

Magnit Maydonni Yaratish: Kuchli magnit maydon ( $B_0$ ) hosil qilinadi.

Protonlarni qo'zg'atish uchun RF impulslar yuboriladi. Protonlar dastlabki holatiga qaytib, signal hosil qiladi. Bu signal qayd etiladi va tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga asoslanib bug'doy unidagi namlik miqdori aniqlanadi.

Yadro magnit rezonans usuli bug'doy unidagi namlikni aniqlashda yuqori aniqlik va ishonchlikni ta'minlaydi, bu esa mahsulot sifatini nazorat qilish va saqlash jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

### Xulosa

Namlikni o'lhash, ayniqsa kukunli materiallar uchun, mahsulot sifatini ta'minlashda va saqlash muddatini uzaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada keltirilgan usullar-gravimetrik usul, elektr qarshiligi va dielektrik xususiyatlari usuli, yaqinning infraqizil reflektans (NIR) spektroskopiyasi, Karl Fischer titrlash usuli va yadro magnit rezonans usuli - namlikni aniqlashning samarali va ishonchli usullari hisoblanadi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Masalan, gravimetrik usul yuqori aniqlikni ta'minlaydi, ammo vaqt talab qiladi; elektr qarshiligi va dielektrik xususiyatlari usullari tez natijalar beradi, ammo qimmat uskunalarni talab qiladi; NIR spektroskopiyasi va Karl Fischer titrlash usullari yuqori aniqlik va tezkor natijalar bilan ajralib turadi; yadro magnit rezonans usuli esa juda aniq va ishonchli bo'lib, murakkab va qimmat uskunalarni talab qiladi. Ushbu usullarni to'g'ri tanlash va qo'llash mahsulot sifatini nazorat qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun, namlikni o'lhash usullari turli sanoat sohalarida keng qo'llanilib, mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, namlikni o'lhash usullarining samarali qo'llanilishi mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va optimallashtirish hamda saqlash muddatini uzaytirishga yordam beradi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda, maqsadga muvofiq usulni tanlash va qo'llash zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Uljaev E., Narzullayev Sh.N., Norboev O.N., Substantiation of application of artificial neural networks for creation of humidity measuring devices// International Vritual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences. New York, USA. 2021. – pp. 86-92.
2. Uljaev E., Narzullayev Sh.N., Norboev O.N., Abdikhalilov O.U., Moisture meter for powder bulk materials // International Consortium on Academic, Trends on Education and Science. London, England, 2021. – pp. 115-117.
3. Uljayev E., Usmanova X.A., Turgunbayev A., Igamberdiyev X.Z., Ismatullayev P.R., Tulbayev F.A., Uljayev Z.E., Pardayev G.E., Norboyev O.N., Jumayev Sh.SH., Sochiluvchan materiallarning sig‘imli nam o‘lchagichi // Ixtiro uchun guvohnoma № IAP 05578, 17.03.2018 й.
4. Uljaev E., Ubaydullaev U.M., Narzullayev Sh.N., Khudoyberdiev E.F., Gradient algorithms for artificial neuron network teaching // International Conference on Innovations Energy and Cleaner Production. Silicon Valley, California-USA, 2021. – pp. 1-7.
5. Uljaev E., Ubaydullaev U.M., Narzullaev Sh.N., Capacity transformer of coaxial and cylindrical form of humidity meter // Chemical Technology, Control and Management. 2020. Vol. 2020: Iss. 4, Article 4, – pp. 23-30, <https://doi.org/10.34920/2020.4.23-30>.
6. Uljaev E., Narzullayev S., Utkir U., Shoira S., Increasing the Accuracy of Calibration Device for Measuring the Moisture of Bulk Materials // Lecture Notes in Networks and Systems. 2022. vol 305, – pp. 204-213. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-83368-8\\_20](https://doi.org/10.1007/978-3-030-83368-8_20).

## МАКТАБГАЧАТА'ЛМТАШКИЛОТИДАОТА-ОНАЛАР БИЛАН ХАМКОРЛИКДА ТАРБИЯЧИННИГ РОЛИ

Xalilova Dilnoza Furqatovna

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim texnologiyasi"  
kafedrasini o'qituvchisi

**Annotation:** Ushbu maqolada maktabgachata'lmashkilotlarda ota-onalar nita'lim tarbiyaviy jarayonda faoliyatda qurilishi minlashda tarbiyachining roli haqida fikrlar bildirilgan.

**Аннотация:** В данной статье были высказаны мнения о роли воспитателя в обеспечении активного участия родителей в воспитательно-образовательном процессе в дошкольных образовательных организациях. **Annotation:** In this article, opinions are expressed about the role of educator in ensuring active participation of parents in educational process in preschool organizations.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, ijtimoiy pedagog, ota-onalar bilan hamkorlik, ta'lim-tarbiya, hamkorlik samaradorligi, kattalar bilan o'zaro munosabat .

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, социальный педагог, сотрудничество с родителями, эффективность воспитания, сотрудничество, взаимодействие со взрослыми .

**Keywords:** Organization of preschool education, social teacher, cooperation with parents, educational effectiveness, cooperation with adults .

Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. "Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga" shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. MTT tarbiyachilar oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustivor mavqeini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTT tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnay boshlaguniga qadar oila unga elementar harakatlardan tortib, to'p uloqtirishgacha bo'lgan ko'pgina narsalarni o'rgatgan xolda ertakeshitishdan zavq olish ko'nikmasini hosil qilgan bo'ladi [1]. Bolaning ilk rivojlanishida oilaning ahamiyatini yetarli baholash juda qiyin. Bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilalar turlichcha bo'ladi. Ular kichik, uncha katta bo'lмаган yoki katta, keng bo'lishi

mumkin. Ularda ko‘plab aka-uka va opa-singillar yoki birgina bola bo‘lishi ham mumkin. Ayrim oilalarda bola asrab olingan bo‘ladi yoki qarindoshlari bilan yashaydi. Bola ota-onasidan tashqari, amma-xola, amaki-tog‘a, bobo va buvi, oilaning yaqin do‘stlari kabi ko‘plab o‘zi uchun hurmatli bo‘lgan katta yoshdagি kishilar bilan mustahkam aloqada bo‘lishi mumkinligi sababli ota-onalar bilan aloqa o‘rnatishni yetarli hisoblamay, bola hayotiga real ta’sir ko‘rsatadigan barcha kishilar bilan hamkorlik qilishi kerak [3]. Bola vositasida oila bilan muloqot qilish – murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o‘z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mammuniyat bilan o‘qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a’zolari uning yutuqlaridan xabardor bo‘lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTMdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug‘diradigan barcha jihatlarni mammuniyat bilan muhokama qilishlari kerak. Yana shuni ham e’tirof etish kerakki, tarbiyachilar va bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotida guruh deb ataluvchi uyushmada hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi [4]. Tarbiyachilar ular bolalardan kutadigan o‘zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishda namuna bo‘ladilar. Bolalar boshqa bolalar bilan ijodiy o‘zaro munosabatlarning mustahkam poydevorini qo‘yadi.

Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko‘rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a’lo darajada rasm chizuvchilarni ham va xatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe’l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o‘rganadilar [2]. Bolalar boshqalar ularning har birini qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko‘rganlarida hamda sezganlarida o‘zlarini qulay his qiladilar va erkin tutadilar, shu bilan birga o‘zlarining shaxsiy qiziqishlarini amalga oshiradilar.

Tarbiyachilar shuni tushunib yetishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o‘zlariga bildirilgan samimiyyatni his etadilar va sezadilar. O‘z ustida ishlaydigan va mahoratini uzlusiz oshirib boradigan tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo‘natish yo‘li oilalar va pedagoglar jamoasi o‘rtasidagi yaqinlikni ta’minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to‘g‘risidagi qisqagina xabar yoki raxmatnama bo‘lishi ham mumkin. Bundan tashqari aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o‘ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqtি juda cheklangan yoki oilada telefon bo‘lmaganda bu o‘zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo‘lsa, kundalik doimiy aloqani ta’minlaydi hamda ota-onalar yoki

pedagoglar jamoasini u yoki bu o‘zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo‘l keladi. Chunki ular o‘z fikrlarini yozma shaklda osonifodalaydilar.

Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-nalari va MTT ning faol ishtirokisiz erishib bo’lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hakorligi borasidagi qarashlari turlicha .Bazi oilalarda ota-onalarning o‘z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanish masalalarini hal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan. Bazi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular MTT ni faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi [5]. Tarbiyachining maslaxatlarini e’tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi. Bazi ota-onalar, ularning vazifasi faqat bolaning kiyinishini ta’minlash deb qarashadi.

Ota-onalarning pedagogik faoliyat sohasiga jalgan etilishi, ularning ta’limiy faoliyat jarayoniga qiziqishi o‘z farzandi uchun juda muhimdir.

MTTlar uchun o‘zaro hamkorlik qilish jarayonining inkor qilib bo’lmaydigan afzallliklari ko’p [5].

Bu tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda bиргаликда ishslashga bo’lgan ijodiy qarashidadir. Ota-onalar MTTlari har doim pedagogik muammolarni hal qilishda yordam berishga va shu bilan birga ularga hech qanday zarar yetkazmasligiga amindirlar, chunki ular oila nuqtai nazarini va bola bilan o‘zaro munosabat bo'yicha takliflarni xisobga oladilar. Tarbiyachilar, o‘z navbatida, pedagogik muammolarni hal qilishda ota-onalarning istaklarini inobatga oladilar. Bu yerda bolalar asosiy manfaatdor taraf hisoblanadi. Bu bolaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi, tarbiyachi esa doimiy oila bilan aloqada bo’lib, o‘z tarbiyalanuvchisining o‘ziga hos hususiyatlari va odatlarini biladi vafaoliyatda ularni hisobga oladi, bu esa o‘z navbatidapedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga omil bo’ladi.

Ota-onalar mustaqil ravishda maktabgacha yoshdagagi bolaning rivojlanish va tarbiyasida zarur deb hisoblagan yo’nalishni tanlaydilar va shakillantiradilar, shuning uchun ota-onalar bolani tarbiyalash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladilar.

MTT da bola bilimga ega bo’ladi, boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘z faoliyatini tashkil etish qobiliyatini oladi. Biroq, bola ushbu ko‘nikmalarni qanchalik samarali egallashi oilaning maktabgacha ta’lim muassasasiga bo’lgan munosabatiga bog‘liq. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ta’lim jarayonida ularning ota-onalarining faol ishtirokisiz uyg‘un rivojlanishi mumkin emas [7].

"Oila bilan o'zaro munosabatlar" tushunchasini "ota-onalar bilan ishlash" tushunchasi bilan aralashtirmaslik kerak. Garchi ikkinchisi tarkibiy qism o'zaro aloqadorlik nafaqat jarayon ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlanishini, balki qayta aloqa qilishni ham nazarda tutadi [6].

Interfaol usullardan foydalangan holda ota-onalar bilan ishlashning ma'nosi nafaqat ota-onalar bilan aloqalarni o'rnatishda, balki shu tarzda yaratilgan qulay hissiy muhit tufayli ota-onalar tarbiyachining maslahatlarini yaxshi qabul qilishlari, yangi ma'lumotlarni idrok etishlari uchun ochiq bo'lishlari bilan bog'liq. Shunday qilib, oilaviy munosabatlar va ota-ona-bola munosabatlar bolaning pozitsiyasini va boshqa odamlar bilan shaxslararo munosabatlar strategiyasini shakllantiradi [3]. Ota-onalar barkamol bo'lishni, bolalarni tarbiyalashni, o'zlarining ta'lif faoliyatini tahlil qilishni o'rganishlari, pedagogik xatolarning sabablarini, ishlatalgan usullarning samarasizligini aniqlashlari, bolaga uning xarakteriga va o'ziga xos vaziyatga mos keladigan ta'sir qilish usullarini tanlashlari kerak. Barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish bugunning eng dolzarb masalasidir. O'zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo'yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham muktabgacha ta'lif muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, 2023.
2. Sultansaidova Mushtariy Abzalxanova. (2023). DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING IN PROFESSIONAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 101-103. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2180>
3. Furqatovna, X. D. (2024). THE ROLE OF SOCIAL COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF FUTURE EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(3), 59-61.
4. Imamova, N. Z., & Abdulhakimova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM ERTALIKLARI ORQALI BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 66-68.
5. Khalilova Dilnoza Furkatovna. the technology of developing social competences in future educators 11th-International Conferenceon Research in

Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany  
<https://conferencea.org> Feb. 27 th 2023.

6. Artikbayeva, A. A. (2023). BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING ANAMIYATI. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 186-190.
7. Камолова, Г. (2024, March). ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 197-204).

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O'YIN JARAYONI BOLA RIVOJLANISHIDA MUHIM FAOLIYAT SIFATIDA

*Imamova Nilufar Zabiyxulla qizi,*

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism metodikasi kafedrasи p.f.f.d.*

*(PhD), dotsent v.b., [Imamova9097@gmail.com](mailto:Imamova9097@gmail.com)*

Bugun maktabgacha ta'lism sohasi davlat ta'lism siyosatining muhim bo'g'iniga aylangan. Maktabgacha ta'limda qamrovni kengaytirish, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini oshirish, oliy ta'lism diplomiga ega pedagoglar sonini oshirish, har yili maktabgacha ta'lism tashkilotlarini yangi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash kabi islohotlarni shuning isboti sifatida ko'rish mumkin.

Maktabgacha bo'lган yosh davri inson rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Bolalar shu davrda ilk ko'nikma va malakalarni egallaydilar, insonlar bilan o'zaro muloqotga kirishadilar, ilk moslashuv davrini boshidan kechiradilar, harakter shakllanishi va mehnatga bo'lган munosabat ham aynan shu davrda shakllanib rivojlanib boradi.

Inson xayoti davomida turli faoliyat turlari yetakchi hisoblanadi, bolalik davrida esa o'yin faoliyati yetakchi faoliyat turidir.

O'yin bolalarga ta'lism - tarbiya beruvchi, refleksiv tafakkurni rivojlantiruvchi vositadir. Umuman olganda o'yin bola shaxsini rivojlantiradi, bola ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'yin bolalarning rivojlanishida juda muhim o'rinn tutadi.

Bundan tashqari o'yin bolaga ta'lism beradi, tarbiya beradi, jamoada o'zini qanday tutishni o'rgatadi, ijtimoiylashtiradi, nutqini o'stradi, intellektini oshiradi va xokazo.

A.S.Makarenko ta'rifida bolalarning hayotida o'yin kattalarning faoliyati, mehnatining ahamiyati bilan tenglashtirilgan. Bola o'yinda o'zini qanday tutsa katta bo'lganida ham shunday bo'ladi degan nazariyani ilgari surgan, demak, o'yin kichkina odamchaning katta bo'lganida qanday bo'lishini ham prognoz qiladi. O'yin nafaqat kichik yoshdagи bolalar uchun ahamiyatligina bo'lib qolmay kattalar uchun ham jozibadordir. Umuman olganda, u hordiq chiqarish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

O'yin bolalar hayotida muhim rol o'ynaydiki, unda bolalarga mansub bo'lган mehnat ham, atrofi-olam haqida fikrlash, zavqlanish, dam olish barchasi birlashib ketadi. Shunung uchun ham o'yin bolalar va kattalar uchun jozibadordir.

Qadimgi greklarda o'yin so'zi bolalarga hos faoliyat turi va u davrlar mobaynida faqat xalqning kichik vakillariga yetkazib beriladi degan mazmunda tushunilgan. Yaxudiyarda o'yin-kulgi va xazil mutoyiba tushunchasi sifatida tushunilgan. Rimliklardada "ludo", sanskrit tilida "klyada" – xursandchilik va o'yin kulguni ifodalaydi. Nemislarda qadimgi nemis tilida "spilan" so'zi yengil to'lqinli yoki

mayatniksimon harakatni ifodalaydi va bu insonga zavq beruvchi xisoblanadi. Rus tilida “igra” – bolalar mashg’uloti bilan birgalikda sahnada rol o’ynash holati ham tushuniladi.

O’yin nazariyasining rivojlanishi XIX asrda F.Shiller, G.Spenser, V.Vundt nomlari bilan bog’liq. O’zlarining falsafiy, estetikaga va san’atga oid qarashlari asnosida o’yinni inson faoliyatining muhim ko’rinishi sifatida tushunib uning kelib chiqishini san’at bilan bog’lashadi. F.Shiller shaxsning estetik tarbiyasi haqidagi maktublarida shunday yozgan edi: “To‘g’ri, tabiat jonivorlarga o‘z ehtiyojlaridan tashqari imkoniyatlar hadya qilib, qorong‘u hayvonot dunyosiga erkinlik yog’dusini sochgan. Arslon ochlikdan ovga chiqmasa yoki boshqa yirtqich uni jangga chaqirmasa, arslondagi foydalanimagan kuch o’zidan o’zi mustaqil ob’yektga aylanadi: sher cho’lni kuchli bo’kirish bilan to’ldiradi va kuchini maqsadsiz sarflashdan zavqlanadi. Hasharot quyosh nurida hayotdan zavqlanib, uchib yuradi va biz uning hayajonli tovushlarini farqlay olmaymiz. Shubhasiz, bu harakatlarda biz erkinlikka egamiz, lekin umuman ehtiyojdan emas, balki faqat o’ziga xos, tashqi ehtiyojdan. Hayvon biror narsaning yetishmasligi uning faoliyatiga turtki bo’lgan sabab bo’lganda ishlaydi va ortiqcha kuchini zavqlanishga, o’z-o’zini rag’batlantirishga sarflaydi. (1935, 237 b.).

Yuqorida berilgan iqtibos Shiller o’yinni ortiqcha kuch to’planganligi nazariyasini yaratganiga ishora qiladi, lekin bu uning qarashlariga to’liq mos kelmaydi. Uning uchun o’yin, aksincha, tashqi ehtiyojlardan xoli, ortiqcha hayotiylikning namoyon bo’lishi bilan bog’liq bo’lgan zavqdir. Shiller uchun o’yin estetik faoliyat hisoblanadi. Tashqi ehtiyojlardan xoli kuchning ortiqcha bo’lishi, Shillerning fikricha, o’yin orqali etkazib beriladigan estetik zavqning paydo bo’lishining shartidir.

G.Spenser ham o’z qarashlarida alohda o’yinga muhim e’tibor qaratmagan lekin uning qarashlari ham Shillerniki kabi bo’lib ortiqcha kuch va estetik zavqlanish kabi nazariyani ilgari surgan. O’yinga bo’lgan ehtiyoj impulsining kelib chiqishi haqidagi savolni o’rganib chiqib, G.Spenser o’z nazariyasini ishlab chiqadi: «Hayvonlarda ularning hammasiga xos bo’lgan shu xususiyat borki, ularning barcha kuchlari hayot uchun zarur bo’lgan ishlarni bajarishga sarflanadi. Ular doimiy ravishda oziq-ovqat qidirish, dushmanlardan qochish, boshpana qurish va avlodlari uchun boshpana va oziq-ovqat tayyorlash bilan band. Ammo samarali yoki muvaffaqiyatli va ko’p sonli qobiliyatlarga ega bo’lgan hayvonlarning yuqori turlariga ko’tarilganimizdan so’ng, biz ularning vaqtি va kuchi bevosita ehtiyojlarni qondirish uchun to’liq so’rilmasligini tushunamiz. Yaxshiroq ovqatlanish, yuqori tashkilotning natijasi, ba’zan bu erda ortiqcha kuchni ta’minlaydi ...

Shunday qilib, yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda sodir bo’ladigan holat bu zarur bo’lgan energiya har qanday holatda ham tez-tez ehtiyojlardan ortiqcha bo’lib chiqadi. Ko’pincha ularda ma’lum bir sarflanmagan qoldiq paydo bo’ladi, bu esa sarf-

xarajatlardan keyingi tiklashga ushbu quvvatni dam olish vaqtida yuqori samaradorlik yoki muvaffaqiyat holatiga keltirish imkonini beradi" (1897, 13-14b.)

Spenserning fikricha, o'yin va estetik faoliyat o'rtasidagi farq shundaki, o'yinda faqat quyi qobiliyatlar, yuqori qobiliyatlar esa estetik faoliyatda namoyon bo'lishidadir. Yuqorida keltirilgan nazariyalar o'yin nazariyasining tizimli ko'rinishi xarakteriga ega emas edi. Ular faqat estetik faoliyatning paydo bo'lishi kontekstida o'yin tabiatini ko'rib chiqish maqsadini amalga oshirganlar. V. Vundt o'yinning kelib chiqishini tushuntirib berishga juda yaqin keldi. Biroq u o'yin manbai zavqdir deb hisoblagan. V. Vundt aytgan fikrlar tizimlashtirilmagan. "O'yin - mehnatning bolasi", deb yozgan edi u.

Hayvonlar va insonlar mashg'ul bo'ladigan o'yin faylasuflar, pedagoglar va psixologlar uchun uzoq vaqtdan beri qiziqish uyg'otib keladi, ammo u faqat XIX asrning oxiridagina maxsus psixologiyaning tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Italiyalik olim D. A. Kolozsa bolalar o'yinlari haqidagi materiallarni tizimlashtirishga harakat qilgan. U oz kitoblarida bolalar o'yinining psixologik va pedagogik ahamiyatini ohib berishga uringan. "Yuqori rivojlangan mavjudodlar ya'ni odamlarda yashash uchun kurash xayvonlarchalik qiyin va shavqatsiz emas. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar onasidan yoki boshqa yaqinlaridan yordam, himoya va g'amxo'rlik topadilar. Bolalarning hayoti asosan kattalarning mehnati va g'amho'rliklari bilan qo'llab quvvatlanganigi ularning oziq-ovqat olish uchun ishlatilishi shart bo'limgan kuchlari o'yin tarzida namoyon bo'ladi.

Xuddi shu narsani biz odamlar hayotida, ayniqsa yaxshi rivojlangan jamiyatlarda ko'proq kuzatamiz. Bolalarga mustaqil yashash imkoniyatini qo'lga kiritish uchun yillar kerak bo'ladi va undagi ortiqcha kuch zahira sifatida to'planadi. Bola endi ishlay boshlaganida ham, uning ehtiyojlari va harajatlari asosan yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shuning uchun u har doim ortiqcha energiyaga ega bo'lib, uni o'ynashga sarflaydi yoki shu tufayli, Spenser o'zining "Sotsiologiya" asarida yozganidek, o'zining qobiliyatlarini o'yin deb ataladigan mashg'ulotlarda mashq qildirishadi.

Uy mushuklarining o'yinini tasvirlab, Kolozsa shunday yozgan: "Tez orada mushukchalar dumalab yuradigan, yuguradigan, emaklab yuradigan va uchadigan hamma narsaga qiziqadilar va bu narsa kelajakda sichqon va qushlarni ovlashga tayyorgarlik bosqichi bo'lib hisoblanadi" (1939, 27-bet). Kolozsa va undan oldin G. Spenser tomonidan bildirilgan kelajakdagi jiddiy faoliyatni kutish sifatidagi o'yin haqidagi bu fikr K. Groos tomonidan o'zining o'yin nazariyasi uchun asos sifatida ishlatilgan.

K. Groosning o'yin nazariyasi juda yaxshi ma'lum va XX asrning birinchi choragida keng tarqalgan. Groos unga eng umumiyl xususiyatlarni berib, uni jismoniy mashqlar yoki o'z-o'zini tarbiyalash nazariyasi deb ataydi. K. Groos «mashq nazariyasi»ning asosiy g'oyalarini quyidagi qoidalarda belgilaydi:

1) har bir tirik mavjudotda uning xatti-harakatining maqsadga muvofiqligini beradigan irsiy moyillik mavjud; Eng yuksak rivojlangan hayvonlar orasida ularning organik tabiatining tug'ma xususiyatlariga o'sish davrida o'ziga xos kuch bilan namoyon bo'ladijan harakatga bo'lgan impulsiv intilish kiradi...

2) yuqori tirik mavjudotlarda, ayniqsa, odamlarda tug'ma reaksiyalar, ular qanchalik zarur bo'lmasin, murakkab hayotiy vazifalarni bajarish uchun yetarli emas, shu sababli ham o'yin orqali olinadigan yangi bilimlar hayoti davomida kerak bo'ladi;

3) har bir oliy mavjudotning hayotida bolalik, ya'ni o'z hayotini mustaqil ravishda ta'minlay olmaydigan rivojlanish va o'sish davri bo'ladi; bu davrda ota-onasi qaramog'i yordamida amalga oshiriladi bu esa o'z navbatida, tug'ma moyilliklarga asoslanadi;

4) bolalikning bu davri hayot uchun zarur bo'lgan, ammo tug'ma reaksiyalardan to'g'ridan-to'g'ri rivojlanmaydigan moslashuvlarni o'zlashtirishga imkon beradi; Shuning uchun odamga ayniqsa boshqa jonzotlarga nisbatan uzoqroq bolalik beriladi;

5) bolalik davrida bo'lishi kerak bo'lgan moslashuvlarning rivojlanishi har xil bo'lishi mumkin. Ularni rivojlantirishning ayniqsa muhim va tabiiy usuli shundaki, irsiy reaksiyalar faoliyatga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq holda namoyon bo'lishga intiladi va shu tariqa o'z-o'zidan yangi yutuqlarni keltirib chiqaradi, shuning uchun olingan ko'nikmalar tug'ma reflekslardan yuqori shakllanadi;

6) moslashuv rivojlanishining bu turi insonning tug'ma taqlid qilish istagi yordamida keksa avlodning odatlari va qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liqdir;

(1916, 70-71-betlar).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faolligini rivojlantirish zarurati XX asr boshlarida maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishida o'yinning roli bo'yicha tadqiqotlar bilan tasdiqlangan (L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, A.N.Leontiev, D.B.Elkonin va boshqalar). Ilk marotaba bolalar o'yinlari nazariyasini yaratish vazifasini L.S. Vigotskiy o'yinni o'yinchoqlar yoki o'yinchoqlarning o'rnini bosuvchi narsalar bilan bajariladigan avval oddiy keyin esa aqliy salohiyatgacha funktsional rivojlanishiga asoslangan amaliyoti deb hisoblagan. V.A. Petrovskiy esa o'yinni maktabgacha yoshdagи bola uchun "faoliyatning o'ziga xos shakli" deb yozgan.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan xujatlarda ham o'yinning bola hayotida muhimligi belgilangan, dunyo miqyosida o'yin ahamiyatini ochib beruvchi kashfiyotlar qilinayotganligi biz bu faoliyat turiga alohida ahamiyat berishimiz lozimligini ta'kidlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Djamilova N. Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. T: "Fan va texnologiyalar". 2018 y.

2. Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rnatish. Darslik. "Metodist nashriyoti", 2023.
3. Pedagogika. // M.To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-T.:O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
4. Uruntaeva G.A. Doshkolnaya psixologiya: Ucheb. posobie dlya stud.sred. ped. ucheb. zavedeniy. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2001.
5. M.A. Abdullayeva O'yin mashg'ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish. "Fan va texnologiya" 2016
6. Джамилова, Н. Н., & Имамова, Н. З. (2018). Развитие инициативности у будущих студентов на основе компетентностного подхода. In *Исследование различных направлений современной науки* (pp. 201-204).
7. Джамилова, Н. Н., Имамова, Н. З., & Захарова, О. С. (2018). ОРНАМЕНТАЛЬНО-ДЕКОРАТИВНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. В состав редакционной коллегии и организационного комитета входят, 204.
8. Imamova, N. (2022). PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA MUSTAQIL FAOLIYATNING AXAMIYATI VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 676-679.
9. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 162-167.
10. Sadikova, D. K. (2023). ORGANIZATION OF CREATIVE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 31-35.
11. Abzalxanova, S. M. (2024). BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 44(10), 37-40.
12. SHeraliyevna, O. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O 'RGALI NUTQINI O 'STIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.
13. Artikbayeva, A. A. (2023). BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 186-190.
14. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.
15. Imamova, N. Z. (2022). DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 317-321.

## MTTLARNI OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH XORIJ TAJRIBASI

*Jizzax viloyati Yangiobod tumani DMTT-3 direktori  
Tangirqulova Ra'no Niyazqulovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lif tashkilotlar va atrof muhitni obodonlashtirish ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketishni tashkil etish va ulardan foydalanish sohasida ta'lif tashkilotlarida mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratish muhimligi bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделяется озеленению образовательных организаций и озеленению окружающей среды, даются предложения и рекомендации по важности удаления особого внимания проблемам, существующим в образовательных организациях в сфере организаций и использования твердых бытовых отходов.

**Abstract.** In this article, special attention is paid to the greening of educational organizations and the improvement of the environment, suggestions on the importance of paying special attention to the existing problems in educational organizations in the field of the organization of transportation of solid household waste and their use, and recommendations are given.

**Kalit so'zlar:** obodonlashtirish , ko'kalamzorlashtirish , atrof-muhit, ijtimoiy barqarorlik, rejallashtirish, tabiat, ta'lif tashkilotlari,bolalar .

**Ключевые слова:** ландшафтный дизайн, ландшафтный дизайн, окружающая среда, социальная устойчивость, планирование, природа, образовательные организации, Дети.

**Key words:** beautification, greening, environment, social stability, planning, nature, educational organizations, children.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari uchun shaharlardagi, ayniqsa mamlakat poytaxtlaridagi ekologik tozalik barcha darajadagi rasmiy xokimiyat organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, ommaviy axborot vositalari va shu bilan birgalikda aholining alohida e'tibor markazida bo'ladi. Shaharlarni obodonlashtirish hamisha eng dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lgan. Obodonlashtirish so'zini ikki xil ma'noda tushunish mumkin: tor ma'no va keng ma'noda. Birinchidan, tor ma'noda – uy-joy, hovli va faqatgina bir kishiga yoki oila a'zolariga tegishli bo'lgan hudud. Ikkinchidan, keng ma'noda – rejallashtirish, kommunal qurilish, uy-joy va yer masalalari, yo'laklar, shaharning yashil maydonlari, ko'chalarni parvarish qilish, ko'cha transporti, shahar aloqalari, shahar

yoritilishi, isitish, shahar ekologiyasi, piyodalar qatnovi zich bo‘lgan va kam bo‘lgan yo‘laklar shular jumlasidandir. Bugungi kunda butun dunyoda chiqindilarning insonlar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida oqilona foydalanilishini ta’minlashga qaratilgan katta loyihamalga oshirilmoqda. MTTlarda bolalarni tabiatga bo‘lgan mehrini oshirish hamda jonli tabiat bilan hamnafas yashashni singdirib borish lozim. Bu bilan atrof muhitni tabiarni saramjon ozoda saqlash bobodonlashtirish davrida ota-bobolaridan ko‘kalamzorlashtirish yo‘llarini oil va MTT hamkorligiga olib borish lozim. Sababi har yili yetti million kishi havo ifloslanishi ta’sirida vafot etadi. Turli gazlar ta’sirida ifloslanishlardan kelib chiqadigan kasallarni davolash uchun har yili 1 trillion dollardan ziyod mablag‘ sarf etiladi. Havoni ifloslanishi nafaqat aholi salomatligiga, balki atrof – muhit uchun ham jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu o‘z – o‘zidan daryo, okaenlarda kislorodni kamaytiradi, biologik xilma – xillikni kamaytiradi shu bilan birgalikda iqlim o‘zgarishlariga hissa qo‘sadi. MTTlarni obodonlashtirishda har bir rahbar matof muhitni, bino inshatlarni toza ozoda saqlamog‘i lozim. Bugungi kunda butun dunyoda chiqindilarning insonlar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida oqilona foydalanilishini ta’minlashga qaratilgan katta loyihamalga oshirilmoqda. Sababi har yili yetti million kishi havo ifloslanishi ta’sirida vafot etadi. Turli gazlar ta’sirida ifloslanishlardan kelib chiqadigan kasallarni davolash uchun har yili 1 trillion dollardan ziyod mablag‘ sarf etiladi. Havoni ifloslanishi nafaqat aholi salomatligiga, balki atrof – muhit uchun ham jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu o‘z – o‘zidan daryo, okaenlarda kislorodni kamaytiradi, biologik xilma – xillikni kamaytiradi shu bilan birgalikda iqlim o‘zgarishlariga hissa qo‘sadi. Shuningdek chiqindini olib ketish uchun to‘lov miqdorini belgilash vakolatiga ega bo‘lishi mumkin, chiqindilarni yo‘q qilish, qayta ishlashga litsenziya va ruxsatnomalar berish aksariyat hollarda davlat yoki uning hududiy vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatni obodonlashtirish va chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati narxlari turli xorijiy davlatlarda turlicha belgilab olingan: AQShda yagona tarifga asosan, Kanadada idish hajmiga qarab, Seulda umumiyligi to‘lovda va boshqalar.

**AQSh** barcha ta’lim tashkilotlari va shaharlarida chiqindini olib ketish odatda yagona tarif bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu xizmatning o‘rtacha oylik narxi 9 dan 70 AQSh dollargachani tashkil qiladi. Chikagoda joylashgan turar-joy binolarida yashovchi aholi Ko‘chalar va sanitariya departamenti tomonidan taqdim etiladigan chiqindini tashish xizmati uchun har bir turar-joyga o‘rtacha oylik 9,5 AQSh dollarini miqdorida pul to‘laydi. Mazkur summa suv va kanalizatsiya xizmatlari bilan birgalikda umumiyligi kommunal to‘lovi tarkibiga kiritilgan.

Kanadaning Toronto va Avstraliyaning Sidney shaharlarida chiqindi idishining xajmiga qarab to‘lovlar amalga oshiriladigan tariflar dasturi amal qiladi. To‘lov miqdori 270-516 AQSh dollarini tashkil etib, unga aholini chiqindisini olib ketish, ko‘cha va ta’lim tashkilotlarida chiqindilarini, organik, gabariti katta bo‘lmagan va metall jismlarni hamda eski elektronika buyumlarini to‘plash, qayta ishlash kiradi.

Amsterdamda chiqindi uchun to‘lov oilada yashovchi fuqarolar soniga qarab amalga oshiriladi, bir kishi turadigan xonodon uchun yillik 326 yevro miqdoridagi to‘lov amalga oshirilsa, bir necha kishilik oila 435 yevrogacha mablag‘ sarflashi mumkin.

Seulda fuqarolar kvartira haqi uchun umumiyligi to‘lovni to‘laydi, uning tarkibiga elektr energiyasi, suv, hududni tozalash, liftlarga xizmat ko‘rsatish, chiqindini olib ketish kabi xizmatlar kiradi. Chiqindi uchun to‘lov “qo‘sishimcha xizmatlar” tarkibiga kiritilgan bo‘lib, umumiyligi to‘lovning 10 foizidan oshmagan miqdorda o‘rnataladi. Janubiy Koreya chiqindini qayta ishlab tizimining yana bir o‘ziga xos jihatni bu oziq-ovqat chiqindisini alohida jamlanishidir. Har bir chiqindi yig‘ish shoxobchasida oziq-ovqat qoldiqlarini tashlash uchun alohida konteyner ajratilgan, biroq uni faqatgina ushbu chiqindi yig‘ish shoxobchasiga biriktirilgan turar-joy binolari aholisi maxsus karta orqali ochishi mumkin. Qutiga kiritilgan oziq-ovqat qoldiqlarining vazni avtomatik ravishda qutida o‘lchanadi va fuqaro hisobiga yozib boriladi, oy yakunida barcha hisoblar jamlanib, qoldiqni utilizatsiya qilish harajati chiqariladi hamda u qo‘sishimcha xizmatlar tarkibida kvartira haqi uchun umumiyligi to‘lovga qo‘shiladi. Umuman ushbu davlatlarda chiqindilarni tasniflash, to‘plash, tashish hamda mahalliy, sanoat va xavfli chiqindilarni qayta ishslashning asosiy jihatlarini tartibga soluvchi qonunchilik amal qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 “Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.01.2013 yildagi 4-sod Qarori.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2017 yildagi PQ-Qarori, Hududlarning jadal rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/3302438>.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy MUROJAATNOMASI.(2020[https://nrm.uz/contentf?doc=612868\\_o%E2%80%98zbekiston\\_respublikasi\\_presidenti\\_shavkat\\_mirzievning\\_oliy\\_majlisga\\_murojaatnomasi\\_\(2020\\_yil\\_24\\_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_presidenti_shavkat_mirzievning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar)))

- Tsui, A. B. M. & Fullilove, J. (1998). Bottom-up or Top-down Processing as a Discriminator of L2 Listening Performance. *Applied Linguistics*, 19(4), 432-451.
- Underwood, M. (1989). *Teaching listening*. New York: Longman.
- Ur, P. (2007). *Teaching listening comprehension*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Vandergrift, L. (1997). The Cinderella of Communication Strategies: Reception Strategies in Interactive Listening. *The Modern Language Journal*, 81(4), 494-505.

## KOREYS TILIDA OLMOSHNING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Rabbanoyev Javlon Omonkulovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys filologiyasi  
kafedrasi stajyor o'qituvchisi,

E-mail: javlonrabbanoev@gmail.com

**Mirzayev Shukurullo Abduqodir o'g'li**

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys filologiyasi  
kafedrasi assistent o'qituvchisi,  
E-mail: shukurullo5599@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Koreys tilida olmoshning turlari va o'ziga xos xususiyatlari hamda olmoshlarni to'g'ri qo'llash qoidalari misollar orqali to'liq yoritib berilgan. Koreys tilida hurmat kategoriysi mavjud bo'lganligi sababli hurmat kategoriyasida olmoshlardan qanday foydalanish kerakligiga ham alohida misollar orqali tushuntirish berilgan.

**Tayanch iboralar:** olmosh, kishilik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, kontekst, shaxs.

Olmosh ot o'rnni egallab o'sha otni ko'rsatib keladigan so'zlardir. Ya'ni olmosh ko'rsatib keladigan ob'ektni kontekst va holat orqali tushunish kerak bo'ladi.

(1) 가: 저기 모자 있지? 그것 좀 집어 줄래?

나: 김 선생님이 소설을 썼는데, 그것을 쓰는 데 10년이 걸렸단다.

(1 가) dagi “그것” oldida kelgan “모자”ni ko'rsatib kelayotgan so'z bo'lib, (1 나)

dagi “그것” oldida kelgan “소설”ni ko'rsatib kelayotgan so'zdir. Yuqorida ko'rganimizdek kontekst orqali olmosh nimani ko'rsatayotganini bilishimiz mumkin.

(2) 가: 청소는 내가 할 테니까, 너는 설거지 좀 해 주겠니?

나: 이것은 아버지께 드릴 선물이고, 저것은 어머니께 드릴 선물이야.

(2 가) dagi “내(나)” va “너” gapi rayotgan odam bilan eshitayotgan odamni ko'rsatib kelayotgan so'z bo'lib, dialogda gapiryotgan odam bilan eshitayotgan odamning o'rni o'zaro almashadigan bo'lsa ularni ko'rsatib kelayotgan so'zlar ham o'zgaradi. (2 나) dagi “이것” va “저것” ko'rsatayotgan ob'ekt gapi rayotgan odamga nisbatan joylashuviga qarab tanlanadi.

### Koreys tilida olmoshning turlari.

Olmoshlar shaxsni ifodalovchi 인칭대명사, ob'ekt, o'rin joy va vaqt ni ifodalovchi 지시대명사 ga bo'linadi. 인칭대명사 (kishilik olmoshi) gapirayotgan shaxsni ko'rsatib keladigan 일인칭대명사 (1-shaxs kishilik olmoshi), eshitayotgan shaxsni ko'rsatib keladigan 이인칭대명사 (2-shaxs kishilik olmoshi) va suhbatda qatnashmayotgan 3-shaxsni ko'rsatib keladigan 삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi) ga bo'linadi. 지시대명사 (ko'rsatish olmoshi) ob'ye ktni ko'rsatib keladigan 사물대명사 (ob'ekt olmoshi), o'rin-joyni ko'rsatib keladigan 장소대명사 (o'rin joy olmoshi), vaqt ni ko'rsatib keladigan 시간대명사 (vaqt olmoshi) larga bo'linadi.

대명사의 종류	대명사 예
인칭대명사 (kishilik olmoshi )	일인칭대명사 (1-shaxs kishilik olmoshi)
	이인칭대명사 (2-shaxs kishilik olmoshi)
	삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi)
지시대명사 (ko'rsatish olmoshi)	사물대명사 (obyekt olmoshi)
	장소대명사 (o'rin-joy olmoshi)
	시간대명사 (vaqt olmoshi)

일인칭대명사 Birinchi shaxs kishilik olmoshining o'ziga xos xususiyatlari



Koreys tilida hurmat kategoriyasi mavjud. Birinchi shaxs kishilik olmoshi ham gapirayotgan shaxs va eshitayotgan shaxsning o‘zaro munosabatlariga qarab turlicha ishlatiladi. Eshitayotgan shaxsni hurmat qilganda gapirayotgan shaxs “Ն” o‘rniga o‘zini pastroq olishni ifodalaydigan “저”dan foydalanadi.

Misol:

4. a) 나는 오늘 대추나무를 심겠어
  - b) 나 오늘 연극 보러 간다
  - c) 나에게 전화 안했니?
  - d) 다음에는 내가 연락할게
- 
5. a) 저는 잘 모르는 일입니다.
  - b) 저에게 맡겨 주십시오
  - c) 저 오늘 늦을 거예요
  - d) 저를 아세요?

Birinchi shaxs kishilik olmoshi “Ն” va “저” gapirayotgan shaxs va eshitayotgan shaxsning o‘zaro hurmat munosabatiga qarab tanlab ishlatiladi. Gapirayotgan shaxs eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi kichik bo‘lganda yoki ilk bor uchrashgan vaqtda “저”dan foydalanib, gapirayotgan shaxs eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, yoshi katta bo‘lganda yoki juda yaqin munosabatda bo‘lganda “Ն” dan foydalanadi. Bundan tashqari birinchi shaxs ko‘plik olmoshida ham bir xil. Gapirayotgan shaxslar eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi kichik bo‘lganda “저희” dan foydalanib, gapirayotgan shaxslar eshitayotgan shaxsga qaraganda mansabi, Yoshi katta bo‘lganda yoki juda yaqin munosabatda bo‘lganda “우리” dan foydalanadi.

Misol:

- a) 할머니, 저희가 결혼했습니다. ( Buvi, biz turmush qurdik )
- b) 애들아, 우리가 결혼했어. ( Bolalar, biz turmush qurdik.)

이인칭대명사 Ikkinchi shaxs kishilik olmoshi.

Koreys tilida odatda hurmat qilish kerak bo‘lgan holatda ikkinchi shaxs kishilik olmoshi ishlatilmaydi. Agar eshituvchi shaxs gapiruvchi shaxsga qaraganda lavozimi yoki yoshi katta bo‘lgan holatda ikkinchi shaxs kishilik olmoshidan foydalanilsa behurmatlikni keltirib chiqaradi.

Misol:

(1) 가: 당신, 언제 차 바꾸셨습니까?

나: 당신, 언제 차 바꿨어?

(2) 가: 자네, 언제 미국 돌아가나?

나: 자네야말로 이 회사에서 없어서는 안될 사람이야.

(3) 가: 이제, 네 방 청소는 네가 해라!

나: 영수야, 너 이거 어디서 샀어?

(1가) misoldagidek suhbatdoshni hurmat qilish kerak bo‘lgan vaqtda ikkinchi shaxs kishilik olmoshi “당신”dan foydalanilsa behurmatlikni keltirib chiqaradi. (1나) misolida eri-xotin yoki Yoshi teng bo‘lgan yaqin munosabatdagi kattalar orasida ishlatish mumkin bo‘lgan gap. (2)misoldagi “자네” ikkinchi shaxs kishilik olmoshi Yoshi yoki lavozimi bir xil bo‘lgan yaqin munosabatdagi kattalar orasida yoki o‘zidan kichik bo‘lgan shaxslarga ishlatiladi. (3) misoldagi “너/네” ikkinchi shaxs kishilik olmoshi kattalar kichiklarga yoki lavozimi, yoshi teng bo‘lib yaqin munosabatda bo‘lgan shaxslar o‘zaro ishlatishi mumkin bo‘lgan olmoshdir.

Koreys tilida ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarini hurmatda ishlatish chegaralanganligi sababli ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari o‘rnida o‘rin joy olmoshlaridan foydalaniladi.

Misol:

(1) 가: 어디에서 전화 왔다고 전해 드릴까요?

나: 삼청동에서 전화 왔다고 전해 주세요?

(2) 가: 다과는 이쪽에서 준비하겠습니다, 그쪽에서는 음식을 준비해 주시겠습니까?

(1가) telefon qilgan odamning ismini bilmagan holatda u odamga murojat qilishga mos so‘z yo‘q bo‘lganligi sababli u odam yashayotgan joy yoki ishxonasini so‘rayotgandek murojat qilinsa suhbatdosh o‘zining ishxonasini yoki ismini aytadi.

Koreys tilida suhbatdoshga murojat qilingan vaqtda olmoshlarga qaraganda suhbatdoshning lavozimi, familya yoki ismi ortidan lavozimini qo'shib ishlatish eng maqbuli hisoblanadi.

Misol:

(3) 가: 과장님, 손님 오셨습니다.

나: 김 과장님, 손님 오셨습니다.

다: 김민수 과장님, 손님 오셨습니다.

Maxsus murojat qilishga mos lavozim nomi bo'limgan holatda “선생님” so'zidan foydalilanadi.

Misol:

(4) 가: 김 선생님께서는 언제 오시겠습니까?

나: 이 일은 선생님께서 하시지요.

(4) misoldagi “선생님”<sup>1</sup> so'zi “o'rgatuvchi ustoz” ma'nosidagi so'z emas maxsus lavozim nomi yo'q bo'lgan shaxsga hurmat bilan murojat qiladigan so'z hisoblanadi.

삼인칭대명사 (3-shaxs kishilik olmoshi)ga 그, 그녀, 저이, 그이, 이분, 그분, 저분, 누구, 아무, 자기, 당신 olmoshlari kiradi.

삼인칭대명사 ya'ni 3-shaxs kishilik olmoshi 4 ga bo'linadi:

1. 정칭대명사 belgilash olmoshiga 그, 그녀, 저이, 그이, 이분, 그분, 저분 kabi olmoshlar kiradi. Gapiroayotgan va eshitayotgan shaxs kimligini bilib turgan 3-shaxsni ko'rsatib keladi.

Misol: (Yonida turgan odamni suhbatdoshiga tanishtirayotib) 이분이 바로 전에 제가 말씀드린 분입니다.

2. 미지칭대명사 (의문대명사) so'roq olmoshiga 누구 kiradi va ko'rsatilayotgan shaxs kimligini bilmaganda ishlatiladi.

Misol: 한국에 유학가는 학생은 누구예요?

1. <sup>1</sup> 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호 [1, 375]

3. 부정대명사 bo'lishsizlik olmoshiga 아무 kiradi. 아무 bo'lishsizlik olmoshining 아무나 (kim bo'lsa ham, barcha), 아무도 (hechkim) shakllari bor.

Misol: 이 일을 아무나 할 수 있어요.

이 일을 아무도 할 수 없어요.

4. 재귀대명사 o'zlik olmoshi o'zidan oldin kelgan ot yoki olmoshni takror ko'rsatib keladigan olmoshdir. 1-shaxsni takror ko'rsatadigan o'zlik olmoshiga 나, 2-shaxsni takror ko'rsatadigan o'zlik olmoshiga 그, 3-shaxsni takror ko'rsatib keladigan o'zlik olmoshiga 저, 자기, 당신, 저희 lar kiradi<sup>2</sup>.

Misol: 나는 어릴 때 나를 일본 사람이라고 믿었다

네가 다시 한국 국적을 갖고 싶으면 그렇게 해, 네 생각대로 해.

그 여자는 자기에게 불리한 말을 했다.


우리 집 막내는 저밖에 몰라.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호
- Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 Toshkent – 2007 Kim Mun Uk
- Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 강의안 Toshkent – 2007 Kim Chun Shik

2. <sup>2</sup> 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호 [2, 379]

## GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASH



**Abduraximova Zubayda Rajabboyevna**

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

17-son maktab psixologи

**Abdullayeva Rayxon Ro'zmatovna**

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

16-son maktab psixologи

### Annotation

Bugungi kunda psixolog shaxsiga giperaktiv bolalar bilan ishlash uchun yetarlicha talablar tushishi sir emas. Giperaktivlik nima va gireraktiv bolalar bilan psixolog qanday ish olib borishi kerak. Bolaning ota faol energiyasini nimalarga safarbar etmoq kerak. Qanday pedagogik-psixologik tasir bola shaxsi shakllanishiga ijobiy tasirini otkazadi.

**Kalit sozlar:** giperaktiv, bezovtalanish, diqqat yetishmovchiligi sindromi, diqqat kontsentranti, faollik, neyrotizm, labillik, ekstrovertlik, inertlik.

## WORKING WITH HYPERACTIVE CHILDREN

### Annotation

Nowadays, it is no secret that psychologists face significant demands when working with hyperactive children. What is hyperactivity, and how should psychologists work with hyperactive children? How should a child's excessive energy be channeled? What kind of pedagogical-psychological influence positively impacts the development of the child's personality?

**Keywords:** hyperactivity, restlessness, attention deficit disorder, attention concentration, activity, neuroticism, lability, extroversion, inertia.

### Giperaktiv qanday holat ?

Giperaktiv bolalarda asosan tartibsizlik, gapga qulqoq tutmaslik, beparvolik, unutuvchanlik, dangasalik xarakterlari kuzatiladi. Ular har bir gapning manosini soraydi, kop bezovtalanadi (barmoqlari bilan narsalarni chaladi, orindiqlarni qimirlatadi, u yoqdan bu yoqqa kop yuguradi, doimo qayergadir intiladi), boshqa bolalarga nisbatan kam uxlaydi va juda mahmadona boladi. Bundan tashqari, savolni oxirigacha eshitmay turib, javob berishni boshlaydi, oz navbatini toqat qilib kutolmaydi, suhbatni buzib aralashib turadi, qoidalarga boysunmaydi va ozini boshqara olmaydi. Giperaktivlikni psixolog qanday korrektsiyalashi mumkin?

Giperaktiv bolalar bilan mashgulotlarni tashkil qilishda psixolog maxsus ishlab chiqilgan korreksion-rivojlantiruvchi dasturni qollashi mumkin. Giperaktiv bolalarga

yordam berishda ularning ota-onalari va oqituvchilari bilan ish olib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kattalarga bolaning muammolarini tushuntirish zarur, uning qiliqlari ataylab qilinmasligini anglatish, ularning yordam va qollab-quvvatlashisiz bunday bola ozidagi bor qiyinchiliklarni yengib ota olmasligini korsata olish kerak.

Psixolog giperaktiv bolalarining ota-onalariga tarbiyaviy tasir etishning aniq usullariga amal qilishlarini tushuntirishi kerak. Ular shuni esda tutishlari lozimki, bolani holatining yaxshilanishi « unga bolgan muloyim, xotirjam va izchil munosabatga bogliqdir ».

Bunday bolalarni tarbiyalashda ota-onsa ikkita keskinlikka yol qoymasliklari kerak: haddan ziyod rahm - shafqat korsatish va bir tomonidan esa uning oldiga u bajara olmaydigan ortiqcha aniqlik, shafqatsizlik va jazolar bilan uygunlashgan katta talablarni qoymaslik.

Psixolog olimlardan M. Rotterning korsatishicha, bunday bolalar mакtabga chiqqach jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki oqish faoliyati diqqat funksiyasi rivojlanishiga yuqori talablarni qoyadi. Shuning uchun ham DEGS bolalar mакtab talablarini bajara olmaydilar.

Qoida boyicha osmirlik yoshida bunday bolalarda diqqatning nuqsonlari saqlanib qoladi, lekin giperaktivlik yoqoladi va kopincha faollikning susayishi, psixik faoliyatning inertligi va istakning yetishmasligi bilan almashadi.

Hozirgi kunda diqqat yetishmasligi va giperaktivligi sindromi bir qator olimlao tomonidan ozganilgan. Ularning korsatishicha, bu sindromning kelib chiqishiga onaning homiladorlitk lavrida va tugruq jarayonidagi qiyinchiliklar, bu davrda notoliq ovqatlanish va kop asabiyashish, ota va onaning spirtli yoki narkotik moddalarni qabul qilish, ilk bolalikdagi somatik kasalliklar ( ogir diatez, dispepsiya ) jismoniy va psixik jarohatlar sabab bolishi mumkin.

Bu bolalarning asab tizimi shunday tuzilganki, ham emotsiyonal, ham jismoniy ortiqcha zoriqish, charchoq belgisi bolgan maqsadsiz faollikni yanada rivojlanishiga imkon beradi. Shuning uchun DEGS li bolalarga aerobika korishidagi jismoniy mashqlar tavsiya etiladi. Ular yurak qon-tomirlarini va nafas tizimining faoliyatini yaxshilaydi, chidamlilikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari bu bolalar kuchli ifodalangan emotsiyonal tarkibli oyinlarni oynamasliklari kerak. Sportning suzish, changida uchish turlari foydalidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixologik xizmat. Z.T.Nishonova. Toshkent, 2014 y.
2. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Z.T.Nishonova. Toshkent, 2018 .
3. Ontogenez psixologiyasi. E.Goziev. Toshkent, 2010 y.
4. Osmirlik davrida psixodiagnostika va psixokorreksiya. Z.T.Nishonova va boshqalar. Oquv qollanma.

## QOZOG'ISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI VA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARI

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik

yo 'nalishi 2-kurs talabasi - Toirova Zilola

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi ko'p konfessiyali mamlakatlardan biri bo'lgan Qozog'iston Respublikasida bugungi tahlikali zamonda dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelayotgani shuningdek, mamlakatda davlat va din munosabatlarining nechog'lik aniqlik bilan yo'lga qo'yilgani keltirildi. Shuningdek bag'rikenglik va vijdon erkinligining qonuniy asoslari, davlat va din munosabatlari tahlili, diniy birlashma va diniy ta'limga oid bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tildi. So'ngida xalqaro maydonda sezilarli ravishda olib borayotgan say-harakatlari sanab o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Qozog'iston, davlat va din, bag'rikenglik, "Almati klubi", konfessiya, diniy birlashma, diniy ta'lim, diniy faoliyat, konstitutsiya, Tinchlik va kelishuv piramidasi

Markaziy Osiyodagi musulmon va boshqa konfessiyalarga mansub aholi o'rtasidagi munosabatlar ham siyosiy, ham maishiy darajada ikki asosiy xususiyatga asoslangan, bular o'zaro hurmat va bag'rikenglikdir. Bu munosabat turli din vakillarining murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardonavor yengib o'tishlari natijasida shakllangan. Markaziy Osiyoda davlat va din munosabatlari uzoq yillardan beri ko'plab tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib keladi. So'nggi yillarda mintaqa davlatlari dinga ixtilofdan ko'ra ko'proq imkoniyat manbai sifatida qarayotgani ko'zga tashlanmoqda.

"Almati klubi" nomini olgan Markaziy Osiyolik tadqiqotchilar guruhi yaqinda "Markaziy Osiyo: "Ipak demokratiyasi" maydoni, islom va davlat" sarlavhasi ostida yangi hisobot chop etdi. Unda 1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda davlat va din munosabatlari evolyutsiyasi, mavjud muammolar, mintaqa hukumatlarining din siyosatida yuz bergen o'zgarishlar tahlil qilingan. Xususan, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlaridagi vaziyat qiyoslanib, o'zaro o'xshash va farqli jihatlar oolib berilgan.

Hisobot mualliflaridan biri aytishicha, o'tgan chorak asr davomida mintaqaning barcha davlatlari diniy hayotni turli darajada nazorat ostida ushlab keldi. Ammo bu borada ko'rilib huquqiy va amaliy choralar har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda

kechdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy o‘tmishga ega bo‘lganidek, mustaqillikdan keyin ham ularning diniy siyosatida o‘xshash jihatlar ko‘p bo‘ldi.<sup>1</sup>

Endi ushbu mavzu doirasida Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasini o‘rganib chiqamiz.

Din har bir shaxs va umuman jamiyat hayotida juda muhim rol o‘ynaydi. Qozog‘istonda rivojlangan diniy vaziyat haqida gapirar ekanmiz, mustaqillik yillarida davlatning ko‘p narsalarni boshidan kechirganini alohida ta’kidlab o‘tamiz. Diniy sekta va tashkilotlarning soni ko‘payib, ayrim diniy rahnamolar va va’zlar paydo bo‘lgan paytlar ham bo‘ldi. Odamlar har xil bid’atlarga e’tiqod qila boshladilar. Insonlar son-sanoqsiz turli xil diniy tashkilotlar va sektalarga mansub edilar. Bunday xatti-harakatlarning oqibatlari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ular barcha mablag‘lari va ko‘chmas mulkclarini ushbu tashkilotlarga berdilar. Natijada ular singan oluk bilan qolib ketishdi. Bularning barchasiga birgina sabab bor – diniy savodsizlik va xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan g‘oyaning yo‘qligi. Ma’lumki, SSSR parchalanganidan keyin odamlar o‘rtasida mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘ldi, uni to‘ldirib bo‘lmasdi. Albatta, yuzaga kelgan bo‘shliq faqat o‘z moddiy manfaatini ko‘zlagan turli diniy tashkilot va sektalarning g‘oyalari bilan to‘ldirila boshlandi. Ko‘pgina tadqiqotchilarining fikricha, globallashgan dunyoda bunday holat birorta sud yoki jamiyatni chetlab o‘tgani yo‘q. Qozog‘iston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, mustaqil davlatga aylangan paytdan boshlab o‘z siyosatini bir hududda yashovchi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tinchlik munosabatlari, dinlar va dunyoning turli diniy tashkilotlari o‘rtasidagi bag‘rikeng munosabatlar kabi an’analar asosida qurdi. Qozog‘iston siyosatining bag‘rikenglikka asoslangan aynan mana shu xususiyati, ayniqla, atrofda terrorizm va ekstremizm ko‘p bo‘layotgan paytda dolzarbdir.<sup>2</sup>

Bag‘rikenglik, shuningdek, u yoki bu dunyoqarash yoki turmush tarzini ma’qullashni anglatmaydi, bu boshqa odamga o‘z tamoyillari bilan harakat qilish va uyg‘unlikda yashash imkoniyatini berishdir. Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyaning 22-moddasida aytilgan: “Har bir inson vijdon erkinligi huquqiga ega. Vijdon erkinligi huquqini amalga oshirish davlat oldidagi umuminsoniy va fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini shart qilmasligi yoki cheklamasligi kerak”.<sup>3</sup> Qonunning ushbu satrlari Qozog‘iston siyosatining bag‘rikengligining tasdig‘i, deb hisoblaymiz.

2011-yil 11-oktabrda qabul qilingan “Diniy faoliyat va diniy birlashmalar to‘g‘risida”gi qonunda vijdon erkinligiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq o‘z ifodasini topgan. Senatda Ushbu Qonunning 3-moddasida har kim Qozog‘iston Respublikasi

<sup>1</sup> <https://www.amerikavozi.com/a/state-and-religion-in-central-asia/4105237.html>

<sup>2</sup> Рысбекова Ш, Базарбаев Б. (Казахский национальный университет имени аль-Фараби, Республика Казахстан, г. Алматы): «РЕЛИГИОЗНАЯ СИТУАЦИЯ В КАЗАХСТАНЕ: ПРОБЛЕМА ДИАЛОГА РЕЛИГИИ И ГОСУДАРСТВА» в-55, 56

<sup>3</sup> [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution#](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution#)

qonunchiligiga muvofiq diniy yoki boshqa e'tiqodlarga e'tiqod qilish, ularni tarqatish, diniy birlashmalar faoliyatida ishtirok etish va missionerlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

"Diniy faoliyat va diniy birlashmalar to‘g‘risida”gi qonunda ham davlat va diniy birlashmalar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari belgilab berilgan bo‘lib, ular diniy birlashmalarning davlatdan ajralib turishi, maktablarning diniy birlashmalardan ajratilishi va xalq ta’limining dunyoviyligi, barcha diniy birlashmalarning qonun oldida teng huquqligi tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Davlatning ham, diniy birlashmalarning ham diniy sohadagi faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi diniy birlashmalarni davlatdan ajratish tamoyili juda muhim tamoyildir.

Shunday qilib, davlat:

1) Qozog‘iston Respublikasi fuqarosi, chet ellik va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan uning dinga va diniy mansubligiga munosabatini aniqlashga, ota-onalar yoki ularning boshqa qonuniy vakillari tomonidan bolalarni tarbiyalashiga aralashmaydi. Bolaning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan, uning huquqlarini buzadigan va javobgarligini cheklaydigan, shuningdek Qozog‘iston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hollar bundan mustasno.

2) diniy birlashmalarga davlat organlarining vazifalarini bajarishni yuklamaydi;

3) diniy birlashmalarning faoliyati Qozog‘iston Respublikasi qonunlariga zid bo‘lmasa, diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi;

4) Qozog‘iston Respublikasi fuqarolari, chet elliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, dinga e’tiqod qiluvchi va e’tiqod qilmaydigan shaxslar, shuningdek, turli diniy birlashmalar o‘rtasida o‘zaro bag‘rikenglik va hurmat munosabatlarini o‘rnatishga yordam beradi.

O‘z navbatida diniy birlashmalar:

1) davlat organlarining funksiyalarini bajarmaydi va ularning faoliyatiga aralashmaydi;

2) siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaslik, ularni moddiy ta’milamaslik, siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanmaslik;

3) Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilishlari shart.

Qozog‘iston dunyoviy davlat sifatida dini, irqi va millatidan qat‘i nazar, mamlakatning barcha fuqarolari uchun qulay yashash sharoitlarini yaratishga intiladi. Qozog‘istonda 46 ta konfessiya mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilning 2-choragi yakunlariga ko‘ra, ayni damda respublikada 18 ta konfessiya va 3816 ta rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan diniy birlashma mavjud (qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar 4551 ta diniy birlashma mavjud edi). Davlat organlari tomonidan turli konfessiyalar vakillari o‘rtasida hurmat va bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar

amalga oshirilmoqda, rasmiy minbarlardan ko‘pincha madaniyatlararo muloqot, ochiqlik va o‘zaro ishonchga chaqiriqlar yangramoqda.

Hukumatning din to‘g‘risidagi qonunlari Konstitutsiyadagi diniy erkinlikning huquqiy himoyasini toraytiradi. 2005-yilda qonunlarga ro‘yxatga olish talablarini kuchaytirish va diniy guruhsiz markaziy hukumatda ham, jamoatlari joylashgan alohida hududlar (viloyatlar)ning mahalliy hukumatlarida ham ro‘yxatdan o‘tishlari kerakligini aniqlashtirish uchun o‘zgartirishlar kiritilgan. Ushbu tuzatishlar kiritilgunga qadar hukumat diniy tashkilotlardan faqat mulk sotib olish yoki ijara qilish, xodimlarni yollash yoki boshqa qonuniy operatsiyalarni amalga oshirish uchun qonuniy maqomga ega bo‘lishni xohlasa, ro‘yxatdan o‘tishini talab qilgan. Garchi o‘zgartirilgan milliy din qonunlari diniy tashkilotlarning hukumatda ro‘yxatdan o‘tishini aniq talab qilsa-da, u barcha odamlarning “yakka o‘zi yoki boshqalar bilan birga” o‘z diniga e’tiqod qilish erkinligini ta’minalashda davom etmoqda. Ro‘yxatdan o‘tish uchun diniy tashkilot o‘n nafardan kam bo‘lmagan a’zoga ega bo‘lishi va Adliya vazirligiga ariza taqdim etishi kerak.

Diniy tashkilotga tarafdorlar soni yetarli emasligi yoki diniy tashkilot nizomi qoidalari va qonunlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli hukumat ro‘yxatga olishni rad etishi mumkin. Bundan tashqari, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, ro‘yxatdan o‘tgan tashkilot, shu jumladan, diniy guruhsiz Konstitutsiya yoki qonunlarga zid bo‘lgan faoliyatni muntazam ravishda amalga oshirganligi uchun sud qarori bilan barcha faoliyati uch oydan olti oygacha muddatga to‘xtatilishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotning ustavi va nizomi: ichki ishlar organlari, prokurorlar, fuqarolar ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotning faoliyatini to‘xtatib turish to‘g‘risida sudga ariza bilan huquqbazarliklarni bartaraf etmaganliklari yoki qonun hujjatlarini takroran buzganliklari uchun murojaat qilishlari mumkin. To‘xtatib turish vaqtida tegishli tashkilotga tashkilot nomidan ommaviy axborot vositalari bilan gaplashish taqiqlanadi; yig‘ilishlar yoki xizmatlarni o‘tkazish; va ish haqini to‘lash kabi davom etayotgan shartnomalarini bajarishdan tashqari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish kabi bandlardan iborat.

Qozog‘istonda dunyoviy bo‘lmagan diniy ta’lim muassasalari ham ta’lim tizimining muhim qismini tashkil etadi. Hozirda mamlakatda 15 ta diniy ta’lim muassasasi mavjud: ikkita nasroniy (Olmaotadagi pravoslav diniy seminariysi va cherkov onasi Maryam katolik seminariysi) va 13 ta islom ta’lim muassasasi (kollej maqomida bo‘lgan 9 ta madrasa, 2 ta litsey va ikkita o‘quv markazlari). 2013 yilga kelsak, kirish kurslari va yakshanba maktablarining umumiyligi soni 397 tani tashkil etdi (ulardan 334 tasi islom, 44 tasi pravoslav, 15 tasi protestant va 4 tasi katolik maktablari). Milliy universitetlardan farqli o‘laroq, bu ta’lim muassasalari dinni o‘rganishga konfessional yondashuvni taklif qiladi. Ulardan faqat to‘rttasi rasmiy

universitetlar maqomini oldi: Almati shahridagi Pravoslav diniy seminariyasi va Cherkov onasi Maryam katolik seminariyasi, Nur-Muborak Misr universiteti.

Darhaqiqat, Qozog‘istondagi diniy bag‘rikenglik hukumatning puxta o‘ylangan siyosati natijasi desa mubolag‘a bo‘lmaydi. Suveren rivojlanish jarayonining boshidanoq Qozog‘iston o‘zini dunyoviy davlat deb e’lon qildi. Bu shuni nazarda tutadiki, hech qanday din davlat dini yoki majburiy deb tan olinmaydi va davlat siyosati faqat butun jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, ayrim dinlar va ularning e’tiqod qiluvchilari foydasiga hech qanday ustunlik bermasdan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan diniy konfessiya va birlashmalarga teng hurmat va to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, ular qonuniy faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, ularning ichki ishlariga aralashmaydi.

Shu bilan birga, dunyoviy maqom davlatning diniy sohadan butunlay uzoqlashishini anglatmaydi. Bu, eng avvalo, fuqarolarning vijdon erkinligi, diniy mansubligini aniqlash, shu asosda har qanday kamsitishlardan himoyalanish kabi konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishini ta’minlaydi.

Amalga oshirilgan say-harakatlardan so‘ng nihoyat, xalqaro maydonda sezilarli faollik ko‘rsatgan Qozog‘iston dunyo miqyosida konfessiyalararo totuvlik va sivilizatsiyalararo muloqot qadriyatlarini ilgari surish bo‘yicha o‘ziga xos institut yaratish tashabbusi bilan chiqdi.

Qozog‘iston dinlararo muloqot va bag‘rikenglikni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatladı. 2003-yildan buyon **Jahon va an'anaviy dinlar yetakchilari qurultoyini** o‘tkazib keladi. Mashvaratdan ko‘zlangan maqsad dinlararo muloqot an'analarini mustahkamlash, diniy jamoalar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni chuqurlashtirishdan iboratdir. Har uch yilda bir marta Ostona (Qozog‘iston poytaxti) Jahon dinlari yetakchilari qurultoyiga mezbonlik qiladi va an'anaviy dinlar yetakchilari Tinchlik va kelishuv piramidasida joylashgan. Kongress ilohiyot, jamiyat va siyosat bo‘yicha munozaralar tashkil etish va fikr almashish uchun dunyoning barcha burchaklaridan diniy yetakchilarni yig‘adi. Nazarboyev muntazam ravishda mamlakatdagi millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglik an'analarini ta’kidlab, olqishlab, ommaviy bayonotlar bilan chiqdi va xalqaro diniy yetakchilar va hamjamiyatlar bilan aloqalarini davom ettiradi. 2007-yil 8-aprelda president Ostona dagi pravoslav cherkovining Pasxa marosimida milliy televideniye orqali nutq so‘zlab, “**Qozog‘istonda millatlararo va dinlararo tinchlik hukm suradi. Pasxa va boshqa diniy guruahlarning bayramlari bir xil, chunki biz butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan buyuk haqiqatni hech qachon unutmaymiz: bizda bitta Xudo bor va har kim Xudoga o‘z yo‘lidan boradi**” deb, ta’kidladi.

To‘rtinchi Kongress 2012-yilning 30–31-may kunlari bo‘lib o‘tdi, u din va dinlararo muloqotning global xavfsizlik va insoniyat taraqqiyotini ta’minlashdagi rolini muhokama qildi. Qozog‘istonning Kongressga mezbonlik qilishi, tahlilchi

Roman Muzalevskiyning so‘zlariga ko‘ra, “hukumat zimmasiga etnik guruhlarning bag‘rikeng birga yashashi va diniy birlashmalar uchun qulay muhitni ta’minlash majburiyatini yuklaydi”. 2012 yilgi Kongress esa qirq mamlakatdan rekord darajadagi 350 delegatni yeg‘di. Prezident Nazarboyev bu an'anani davom ettirish istagini bildirdi.<sup>4</sup>

**“Geosiyosiy tanglik kuchayib, fundamental tahdidlar avj olayotgan sharoitda axloq, ezgulik, insoniylik kabi qadriyatlarning ahamiyati ortmoqda. Shu bilan birga, yangi xalqaro xavfsizlik tizimini shakllantirish masalasiga kun tartibiga chiqmoqda. Buning uchun tinchlik va barqarorlik tarafdarlarining global miqyosdagi birligi talab etiladi. Bu xayrli ishda diniy yetakchilar muhim rol o‘ynashi mumkin”, – deydi Qozog‘iston rahbari.**

Qayd etilishicha, Qozog‘istonda 20 yildan buyon o‘tkazilayotgan Jahon va an'anaviy dinlar yetakchilari qurultoyi tamaddunlar muloqotining muhim maydoniga aylandi.

2023-yil 11-oktabr kuni Ostona shahrida Jahon va an'anaviy dinlar yetakchilari qurultoyi Kotibiyatining 21-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Mashvaratda 2023–2033 yillarda Jahon va an'anaviy dinlar yetakchilari qurultoyini takomillashtirish konsepsiysi ma’qullandi. Tadbir yakunida qabul qilingan kommyunikeda rasmiy Ostona taklif etayotgan tinchlik yo‘lida yangi global harakat tuzish g‘oyasi qo‘llab-quvvatlandi.

Markaziy Osiyoning qoq markazida o‘zining boy madaniy xilma-xilligi, ko‘p millatli jamiyati va ma’naviy an’analari bilan mashhur bo‘lgan davlat konfessiyalararo totuvlik va hamjihatlikning global chirog‘i sifatida paydo bo‘ldi.

So‘nggi yigirma yil ichida Qozog‘istondagi Jahon va an'anaviy dinlar yetakchilari qurultoyi dunyo bo‘ylab turli dinlar o‘rtasida muloqotni rivojlantirish, birdamlikni mustahkamlash va tinchlikni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi. Qozog‘istoning chuqur ma’naviy merosi va donoligidan kelib chiqqan ushbu tashabbus xalqaro hamkorlik va bag‘rikenglik ramziga aylandi. Uning Prezident Qosim-Jomart Toqayev boshchiligidagi ajoyib sayohati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning kelajagiga nazar tashlar ekanmiz, mazkur kongress global totuvlik va birdamlikni mustahkamlash yo‘lida yanada katta qadamlar tashlashga tayyor ekani ayon bo‘ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 12-dekabrdagi yalpi majlisida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qildi. Bu rezolyutsiyani 2017-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tadigan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qabul qilish tashabbusi Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan edi. O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi “hammaning ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash,

<sup>4</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Freedom\\_of\\_religion\\_in\\_Kazakhstan](https://en.wikipedia.org/wiki/Freedom_of_religion_in_Kazakhstan)

savodsizlik va jaholatga barham berish”dir. Hujjat, shuningdek, “bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni rivojlantirish, diniy erkinlikni ta’minlash, dindorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga nisbatan kamsitishning oldini olishga” qaratilgan. Ushbu rezolyutsiya nafaqat BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi, balki 50 dan ortiq davlat hammuallifligida qabul qilindi. Hammualliflar orasida Ozarbayjon, Jazoir, Bahrayn, Belarus, Gana, Misr, Hindiston, **Qozog‘iston**, Kanada, Qatar, Qirg‘iziston, Livan, Marokash, BAA, Ummon, Pokiston, Koreya Respublikasi, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Sudan bor, Tojikiston, Tailand, Tunis, Turkmaniston, Filippin, Yaponiya va boshqa mamlakatlar bor.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda mamlakatlarda tinchlik, osoyishtalik beg‘ubor osmon, munavvar kunlarning qard qimmati, ahamiyati har qachongidan ham ortib ketdi. Ana shu tinchlik, osoyishlatik omili bo‘lgan diniy bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga Qozog‘iston Respublikasida alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatda xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zaminda buyuk g‘oya va sof niyatlar yo‘lida xamkor va hamjixat bo‘lib yashashligi bag‘rikenglikning yorqin namunasidir. Diniy soha vakillari o‘z faoliyatlarini din va davlat munosabatlaridagi asosiy jihat – dinning siyosatga aralashmasligi, har qanday din, birinchi o‘rinda, ma’naviy-axloqiy jihatlarni o‘z ichiga olishi haqidagi tamoyilga tayangan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy, tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatalishiga ko‘maklashadi va eksteremizm asosida diniy munosabatlarni keskinlashtirilishiga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Muayyan dinga e’tiqod qiluvchilarni boshqasiga kiritishga qaratilgan prozelitizm va missionerlik faoliyati qonunan man etiladi. Rivojlangan demokratik yo‘ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta’minlash va diniy bag‘rikenglikka asoslangan. Uni qaysi din bo‘lishidan qat’iy nazar, davlatdan, uning siyosatidan ajratish mumkin, ammo jamiyatdan ajratib bo‘lmaydi. Aksincha, diniy munosabatlar jamiyat a’zolari o‘rtasida axloqiy munosabatlarni shakllantiradi, aholini ma’lum maqsad ortida birlashtirishga ko‘maklashadi, ezgulikka chorlaydi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, tenglikka erishish hamda taraqqiyot uchun xizmat qilishga chorlaydi.

## EXPLORING THE ROLE OF PRAGMATICS IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION

*Abdullaeva Gulhayo Ulugbekovna*

*Uzbekistan State World Languages University, Tashkent*

*[gulhayo.abdullahova.28@gmail.com](mailto:gulhayo.abdullahova.28@gmail.com)*

### Abstract

In today's globalized world, effective communication across cultures has become more significant than ever. This paper investigates features of pragmatics, a branch of sociolinguistics that explores how context shapes the meaning of language, in particular, in cross-cultural communications. Besides, this article explores how cultural norms and values impact pragmatic conventions, starting with an overview of pragmatics and its key concepts. Through analysis of cultural differences in politeness strategies, indirectness, and speech rituals, it becomes obvious that misunderstandings frequently occur in intercultural communication because of differing pragmatic norms. Nevertheless, some approaches are also offered to navigate these challenges, emphasizing the significance of awareness and sensitivity to pragmatic differences. Readers gain insight into the practical applications of understanding pragmatics in diverse contexts. Finally, future directions for research in cross-cultural pragmatics are also highlighted.

**Key words:** language, cross-cultural communication, sociolinguistics, pragmatics.

### Introduction

To begin with, pragmatics is the study of the use of language in a social context whereas sociolinguistics is the study of social and cultural effects on language. Bruner (1984) described the pragmatics of language as, "in Geertz's metaphor, a culture is rather like an ambiguous text that is constantly in need of explication through the joint negotiation of its meanings with others. And at that, the meanings negotiated may change with a change in context. According to Wardhaugh & Fuller (2015), there is a huge difference between pragmatics and semantics as both fields are closely connected to the meaning of words. They noted that pragmatics studies the meaning of utterances in context while semantics deals with the study of meaning as part of the language system.

### Methodology

Pragmatics is the study of the use of language in a social context while sociolinguistics is the study of social and cultural effects on language. Bruner (1984) described the pragmatics of language as, "in Geertz's metaphor, a culture is rather like

an ambiguous text that is constantly in need of explication through the joint negotiation of its meanings with others.

It is crucially important to understand the importance of pragmatics in our daily communications so as to avoid cultural misunderstandings. For example, key concepts of pragmatics, such as speech acts, gender, and politeness play an important role in effective communication with one another. Speech Act Theory was developed by J.L. Austin and later expanded upon by John Searle. This theory claims that when people communicate, they are not only describing the world but also involved in social acts, including praising, criticizing, congratulating, and apologizing (Austin, 1962; Searle, 1969). Different cultures have a variety of ways to perform these acts meaning that it is necessary to obtain a deep knowledge of the ways of those speech acts are performed. There are a number of types of speech acts, including:

1. **Assertives:** These speech acts serve to show a state of affairs. For example, saying "The Sun is shining" is an assertive speech act.

2. **Directives:** they serve to get the listener to do something. For example, commands, requests, and suggestions ask the other listener to do something. For instance, "Switch the lights on, please" is a directive speech act.

3. **Expressives:** this type of speech acts help to express the speaker's attitudes or emotions. Apologies, thanks, congratulations, and condolences are bright examples of this. "I am grateful for your help" expresses the speaker's thankfulness.

4. **Commissives:** they involve the speaker committing to a future course of action. Promises, pledges, and vows are examples of commissive speech acts.

5. **Declarations:** they bring about a change in the external world simply by being uttered. "I now pronounce you husband and wife" in a wedding ceremony is a declaration.

Understanding speech acts is crucial for interpreting the intended meaning behind utterances and for effectively communicating intentions.

Politeness Theory, on the other hand, was proposed by Penelope Brown and Stephen Levinson. It examines the ways how people manage interpersonal relationships through language (Brown & Levinson, 1987). The theory shows the differences between positive politeness (strategies to show friendly attitude and solidarity), and negative politeness (strategies to avoid imposition and maintain autonomy). Politeness strategies may be different across cultures, with some cultures putting greater emphasis on maintaining social harmony and saving face (Brown & Levinson, 1987). In the context of cross-cultural communication, understanding politeness strategies is essential for navigating cultural differences and avoiding unintended offense. By examining how politeness is expressed and interpreted in different cultural contexts, researchers can shed light on the pragmatic principles underlying cross-cultural communication (Brown & Levinson, 1987).

## Findings

There are a number of strategies to develop pragmatic skills in communication. Firstly, stimulation activities such as role-playing can help individuals to practice different social scenarios. This basically helps them to understand appropriate responses and behaviors in various contexts. Another way would be practicing real-life settings. Learners may be encouraged to practice in natural settings, such as family gatherings, schools, or work environments. Group activities and social skills groups can be another way. For example, participating in group activities that require communication and collaboration can develop pragmatic skills.

## Conclusion

In conclusion, language is one of the most important and influential features for any culture or society. Usually, countries have their own languages, and they are used differently in various situations. It is essential to gain insights into how to use the language correctly in different contexts considering different factors such as age, gender, education and ethnicity. Learning effective communications skills, particularly, pragmatic skills play a significant role in avoiding cultural misunderstandings among people. In most cases, other language skills are more prioritized over pragmatic skills which results in inappropriate use of language. In order to effectively deal with this situation, above-mentioned strategies would be helpful.

## References

- Ahmed, F.(2022). "Pragmatics" from the book An introduction to Sociolinguistics. Retrieved from [https://www.researchgate.net/publication/358087613\\_Pragmatics\\_from\\_the\\_Book\\_An\\_Introduction\\_to\\_Sociolinguistics\\_Pragmatics\\_from\\_the\\_Book\\_An\\_Introduction\\_to\\_Sociolinguistics](https://www.researchgate.net/publication/358087613_Pragmatics_from_the_Book_An_Introduction_to_Sociolinguistics_Pragmatics_from_the_Book_An_Introduction_to_Sociolinguistics)
- Ivenz, P. & Reid E. (2022). Pragmatic linguistics and sociolinguistics. Culture vs speech. Retrieved from [https://www.researchgate.net/publication/357827819\\_Pragmatic\\_Linguistics\\_and\\_Sociolinguistics\\_Culture\\_vs\\_Speech](https://www.researchgate.net/publication/357827819_Pragmatic_Linguistics_and_Sociolinguistics_Culture_vs_Speech)
- Smith, G. (2024). The role of pragmatics in cross- cultural communication. Retrieved from [https://www.researchgate.net/publication/379380245\\_The\\_Role\\_of\\_Pragmatics\\_in\\_Cross-Cultural\\_Communication](https://www.researchgate.net/publication/379380245_The_Role_of_Pragmatics_in_Cross-Cultural_Communication)



## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	SPIRITUAL HERITAGE OF MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHANOV	3
2	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA FOTOMETRIYA VA RANGSHUNOSLIK FANINING AMALIY GRAFIKA DASTURLARIDAGI AHAMIYATI	7
3	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURI YORDAMIDA NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH MOHIYATI	11
4	KOMPYUTER GRAFIK DIZAYN SOHASIDA (SMD) YO'NALISHI UCHUN PRODUKT DIZAYN MAVZUSIDA POST TAYYORLASHNING AHAMIYATI	14
5	INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLARINING TA'SIRI VA ZAMONAVOY ISHSIZLIK DARAJASINING VUJUDGA KELISHI	18
6	MAMLAKATIMIZDA IJTIMOIY SOHALARGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR VA QILINAYOTGAN ISHLAR	24
7	SHAXSLARARO KONFLIKTLARNING MOHIYATI, TIPOLOGIYASI VA ELEMENTLARI	30
8	FAZODA PERPENDIKULYAR, OG'MA VA MASOFA	35
9	DELPHI DASTURLASH TILIDA OBYEKTLAR HAQIDA	38
10	KOMBINATORIKA MASALALARI. NYUTON BINOMI	40
11	STABILITY RESULTS OF NONLINEAR RIEMAN STIL TES INTEGRATY EQUATION	43
12	ШАРИАТДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИГА ДОИР ТАЪЛИМОТЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ҲАМДА УЛАРНИНГ МАЗМУНИ	48
13	SOCIAL POLITICAL VIEWS OF REPRESENTATIVES OF JADIDISM	59
14	К ВОПРОСУ РАЗРАБОТКИ СПЕЦИАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ ПЕСТИЦИДОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ	62
15	NAMLIKNI O'LHASH USULLARINI TAHLILI	67
16	MAKTABGACHATA'LIMTASHKILOTIDAOTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDA TARBIYACHINING ROLI	79
17	MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O'YIN JARAYONI BOLA RIVOJLANISHIDA MUHIM FAOLIYAT SIFATIDA	84
18	MTTLARNI OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH XORIJ TAJRIBASI	89
19	TA'LIM JARAYONLARIDA MILLIY O'YINLARI ASOSIDA BOLALARDA ODOB-AXLOQNI O'RGATISH	92
20	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI	96





21	МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	100
22	КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧЕСКИЕ КОННОТАЦИИ ПОНЯТИЯ «БЕЗОПАСНОСТЬ»	103
23	TARJIMADA ADEKVATLIKNING AHAMIYATI	112
24	KONTEKSTDAGI TARJIMA	116
25	SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS RELATED TO TERMS AND TERMINOLOGY IN LINGUISTICS	131
26	JADIDLAR ISTIQLOL DARG'ALARI	137
27	YANGI O'ZBEKISTON VA YOSHLAR	140
28	I JAHON URUSHI	143
29	АЛГОРИТМ И ЕГО СВОЙСТВА	145
30	TWO-FACTOR BIOMETRIC AUTHENTICATION SYSTEM 1	150
31	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ	163
32	XARAKTER HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА	168
33	TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MUAMMO VA ECHIMLAR	171
34	ИНТЕГРАЦИОННЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ	174
35	ШАРИАТДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИГА ДОИР ТАЪЛИМОТЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ҲАМДА УЛАРНИНГ МАЗМУНИ	179
36	HOW TO IMPROVE WRITING AND SPEAKING SKILLS	190
37	KOREYS TILIDA OLMOSHNING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	193
38	GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASH	199
39	QOZOG'ISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI VA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARI	201
40	EXPLORING THE ROLE OF PRAGMATICS IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION	208



**Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.

**Главный редактор:**  
**Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:**  
**Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:**  
**Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.



OPEN  ACCESS

